

O'ZBEKISTONDA MUSIQA PEDAGOGIKASINING DAVRLAR ARO  
RIVOJLANISHI

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*San'atshunoslik kafedrasи o'qituvchisi*

*Tursunov Xusniddin Isomovich*

*Tel: +998-91-644-28-52*

*E-mail:husni2021@mail.ru*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda musiqa pedagogikasining eng qadimgi davrlardan to XVI asrgacha davrdagi rivojlanishi va IX-XVI asrlarda Sharq allomalarining musiqa nazariyasi va musiqada shakllar rivoji borasida qo'shgan hissasi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Tayanch so'zlar:** musiqa, davr, tarix, sozanda, xonanda, cholg'u, xofiz, bastakor, pedagogika, ta'lim, tarbiya, sharq, san'atkor.

O'zbek xalqining beباho boyligi hisoblanmish milliy musiqiy cholg'ularimiz o'zining betakrorligi naqsh bezagining jozibadorligi, ovoz tarovatining rang-barangligi va ijro imkoniyatlarining beqiyosligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda alohida o'rin tutadi.

Musiqiy cholg'ular azal azaldan o'zbek xalqining ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etib, kundalik turmush tarzi bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Shuningdek ular hozirgi kunda ham kishilar dunyoqarashining shakllanishida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ayniqsa cholg'u ijrochiligi san'ati ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida noyob estetik vosita sifatida shakllanib, nafaqat musiqa ilmida, balki zamonaviy musiqa ijodiyotida ham katta qiziqish uyg'otib kelmoqda. Uning barcha o'ziga xos xususiyatlari va qirralarini o'rganish esa cholg'u ijrochiligi amaliyotini boyitishga yordam beradi.

Milliy musiqiy sozlarimiz juda qadimiyligi va boy tarixga ega. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan va bizgacha to'liq cholg'u sifatida yetib kelmagan bo'lsada, ilmiy manbalarda tasviri tushirilgan bu cholg'u paleolit davriga to'g'ri

keladi. Shuningdek ular aynan eng qadimiy insoniyat tarixida ilk musiqa rivojining qay tarzda ekanligidan hamda umummadaniy saviyasidan dalolat beradi

Keyingi davrlarda, ya'ni ibtidoiy jamoa tuzumi davrida musiqa cholg'ulari turli bayram va madaniy marosimlarda faol ishtirok etib, musiqa amaliyotini boyitgan holda o'zining yangi qirralarini ocha boshladi. Shuningdek cholg'ular musiqiy talaffuz (intonirovanie) va musiqa tovushqatorlarini aniqlashda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Butun musiqa<sup>1</sup> tarixi davomida, ayniqsa eng avvalgi rivojlanish bosqichlarida, hali umuman nota yozuvi va boshqa musiqiy-tarixiy manbalar bo'lмаган davrlarda musiqiy cholg'ular bebaho tarixiy manba hisoblangan. Musiqiy cholg'ular musiqa rivojida ashyoviy manba bo'lib hisoblangan, ya'ni cholg'ular musiqa rivojida poydevor vazifasini bajarsa, musiqa esa undan keyingi pog'onani egallagan. Aniqrog'i cholg'ular o'sha davrdagi musiqa taraqqiyotining nechog'lik rivojlanganligini tasdiqlovchi vosita hisoblangan va har bir davrdagi taraqqiyot jarayonini namoyon etgan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, inson ovozi va tanasini chertish orqali hosil qilingan tovushlar - tabiiy tovushlar hisoblangan. Haqiqatdan ham shunday. Ibtidoiy odamlar vaqt o'tishi Bilan "tabiiy damli cholg'u" hisoblangan ovozi va "tabiiy zarbli cholg'u" hisoblangan o'z tanasi bilan qanoatlanmay, sun'iy tovush yaratish vositalarini topishga harakat qilganlar. Lekin shunga qaramay, manbalarda yozilishicha birinchi ish jarayonlarini tashkil etishda ibtidoiy odamlar hech qanday sun'iy tovush chiqaradigan ashyolarsiz, o'sha davrlarda yagona manba va san'at ob'ekti hisoblangan o'z tanalaridan chiqaradigan sehrli ovozlardan foydalanganlar va shu bilan chegaralanganlar.

Qanday sabablar insonni musiqa cholg'ularini yaratishga jalg etdi?

Birinchidan, o'zi yaratadigan tabiiy shovqinli tovushlar samardorligini oshirish maqsadida hamda ularni jaragdor va turli-tuman qilish uchun. Shuningdek yovvoyi odamlar odatga aylangan harakatlarini saqlagan holda zarb kuchini hamda qo'l harakati diapazonlarini kengaytirganlar. Shu bilan birga ular daraxt, qovoq va hayvonlar terilaridan foydalananib, tabiiy tovush turlarini saqlagan holda tovushlarni

<sup>1</sup> Грубер Р.И. История музыкальной культуры., М. 1941 том 1, част первая. с.139.

takomillashtirishga harakat qilgan. Yovvoyi odamlarning sehrli hayollari ham o‘z vazifasini bajardi. Ular atayin sun’iy tovushlar yaratish maqsadida o‘z tabiiy tovushlarini o‘zgartirib, ba’zi-bir cholg‘ular ovozini ifodalashga harakat qilganlar (mirliton). U va bu hollarda ham musiqa cholg‘usi timsolida inson a’zolari bo‘lgan.

Musiqiylar cholg‘ular juda qadimiy rivojlanish tarixiga ega. Arxeologik qazilmalar, qoyatoshlardagi va devoriy tasvirlar, tarixiy va ilmiy hujjatlar, adabiy manbalar, miniatyura asarlaridan musiqliy cholg‘ular uzoq o‘tmishda mavjud bo‘lgani va turli xalqlar o‘rtasida muloqot vositasi bo‘lganligini isbotlaydi. O‘zbek xalq cholg‘ulari haqidagi beباho ma’lumotlar A.Eywgorn, V.Bertels, A.Boldyreva, B.Riftin, A.Semyonov, R.Sadokov, T.Vlyzgo, O.Malkeevalarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. So‘nggi yillarda musiqliy cholg‘ularni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish nafaqat bizning respublikamiz, balki chet davlatlarda ham sezilarli darajada ortdi. Ushbu yo‘nalish bugungi kunda zamonaviy san’atshunoslik ilmi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Musiqliy cholg‘ular ma’naviy madaniyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, jamiyat rivojining ma’lum bosqichida shakllangan estetik didni ham aniqlaydi. Shuningdek, musiqliy cholg‘ular va ularning madaniy yodgorliklardagi tasvirlari o‘tmish davr hayotidan dalolat beruvchi haqiqiy va yagona ma’lumot manbai hisoblanadi.

Tarixiy manbalar bizga milliy musiqliy madaniyatimiz uzoq moziy bilan bog‘langanligini eslatib turadi. Qadimshunoslardan tomonidan topilgan ashyoviy dalillar, tosh devorlarga chizilgan musiqliy sozlar va sozandalar, miniatyura ko‘rinishidagi shohlar saroyidagi bazmlarda cholg‘uchilar tasviri, milliy musiqa sozlari va ijrochiligimizning tarixi naqadar qadimiyligidan dalolat beradi. Jumladan, “Afrosiyob xarobalaridan surnay, doyra, ushpullaklar ham topilgan bo‘lib, eng muhimi, ushbu musiqa asboblari hozirgi shaklidan deyarli farq qilmaydi. Yoki Surxondaryoning Dalvarzintepa va qadimgi Xorazmning Qo‘yqirilganqal’a, Tuproqqa’l’a kabi yodgorliklaridan topilgan chang va boshqa musiqliy sozlar qoldiqlari ham dunyodagi eng qadimiy cholg‘u yodgorliklaridir”.

Kishilik jamiyatining rivojlanishi tarixida pedagogika, jumladan musiqa pedagogikasi eng qadimiy ham ilm, ham san’at ta’lim-tarbiyasi sohasidir. Zero,

musiqa pedagogikasi tarixi nihoyatda boy ilmiy-nazariy merosga ega.

Musiqa madaniyatining qadimiy ildizlari yozma ma'rifiy yodgorlik "Avesto" va zardo'shtiylik dini an'analari bilan bog'lanib ketadi. "Avesto"da tarbiyahayotning eng muhim tayanchi, deb hisoblangan. Insonlar paydo bo'lganidan buyon uning tarixi doimiy ravishda tarbiya muammosini hal qilish bilan bog'liq ekaniga guvohlik beradi. Chunki inson hayoti va turmush tarzi, xalq farovonligi, Vatan ravnaqi, jamiyat taraqqiyotining asosida tarbiya turadi. Ma'lumotlarga ko'ra "Avesto" eramizdan avvalgi VII asrning oxiri va VI asrning boshlarida yaratilgan bo'lib, to'liq kitob holida eramizdan avvalgi I asrda shakllangan"

Qadimiy va boy tarixga ega o'zbek milliy musiqa madaniyati targ'ibotini amalga oshirish ushbu soxa ta'lim-tarbiyasi bilan maxsus shug'ullanish maqsadida asrlar davomida mukammal musiqa maktablari mukammal tarzda shakllangan hamda rivoj topib kelgan. Bu maktablarda musiqa ta'lim tarbiyasi bevosita va bilvosita amalga oshirib borilgan bo'lib, ularning faoliyat mazmunida musiqa haqiqiy ma'nodagi tarbiya vositasi ekanligi o'z ifodasini topgan.

Tarixiy manbalarda IX-XII asrlarda O'rta Osiyo musiqiy madaniyatida o'zgarishlar davri bo'lganligi bayon etiladi. Biroq, bu davrlarda ijod qilgan sozandalar, hofizlar va bastakorlarning nomlari hamda ularning ijodiy faoliyatları haqida juda kam ma'lumotlar saqlanib qolingga.

Sharq, jumladan Markaziy Osiyo musiqa san'ati va madaniyati, uning an'analari qadimiy tarixga ega. Sharq xalqlari an'anaviy-kasbiy musiqasi asoschisi sifatida ulug'langa musiqashunos, bastakor, xofiz va shoir Borbad Marvaziy (yoki Faxlobod) VI-VII asrlarda o'zining musiqa maktabini yaratdi. Eron shohi Xusrav Parviz saroyida xizmat qilgan Borbad xalq kuylarini maxorat bilan ijro etish, xofizlik qilish bilan birga yosh musiqachilarining ta'lim-tarbiyasi bilan ham jiddiy shug'ullangan. Tarixchi olimlarning yozma manbalariga asoslangan holda fikr yuritsa, jumladan, VI-VII asrlarda yashab ijod etgan ilk kasbiy musiqashunoslardan biri O'rta-Osiyolik Borbad xaqida ma'lumotlarda uni musiqa san'atining asoschilaridan bo'lib, bastakorlik, shoirlilik, sozandalik va hofizlik borasida tengi yo'q mashhur san'atkori bo'lganligi ta'riflanadi. Borbadqator

madhiya va tarixiy qo'shiqlar, harbiy mavzudagi taronalar ijod etgan. Shunisi muhimki, Borbad xalq kuylari asosida o'sha davrda kasbiy musiqachilik an'anasini boshlab bergen, ijobchilik mahoratida yuksak salohiyatga erishgan san'atkor edi.

Shu bilan birga Borbad "Ustoz-shogird" an'anasini boshlab bergen murabbiy ham bo'lgan. Sosoniylar sulolasiga (milodiy 224-651yy) davrida kasbiy cholg'uchi-sozandalardan Noqus, Romtin, Sarkab, Sarkash, Navogar va boshqalar Borbad musiqa maktabida saboq olib, so'ngra uning an'analarini yuksak san'at, mahorat, iste'dod bilan davom ettirganlar.

IX-XII asrlarda Movarounnahrda madaniyat, ilm-fan, san'at va adabiyot Islom madaniyati yo'naliishida rivojlandi hamda taraqqiy etdi. Bu davrda Ahmad al-Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ismoil al-Buxoriy, At-Termiziy, Abdullo Ro'dakiy, Abdulqosim Firdavsiy, Ahmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, Najmuddin Kubro kabi yuzlab fozil-donishmandlar yashab, ijod qildilar. Zabardast daholar-jahon ilmi, madaniyati yulduzlari qoldirgan ulkan meros hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Donishmandlarning falsafiy-estetik qarashlari ta'limotlar tarzida shakllanib, borliqni mushohada etishda, nafosat (estetik) qadriyatlarni baholashda, inson ma'naviy kamolotida ulkan ahamiyat kasb etadi.

Sharq allomalari musiqa ilmi rivojlanishiga IX-XVI-asrlarda, ayniqsa musiqa nazariyasi va musiqada shakllar masalasi muammolarini yechish borasida ulkan hissa qo'shdilar. Musikashunoslik, uning nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanib ulkan tarixiy musiqiy-pedagogik meros qoldirdilar. Jumladan, X asrning buyuk qomusiy olimi, musiqashunoslik fanining ulug' kashfiyotchisi Abu Nasr al-Forobi (873-950) bo'lib, uning musiqa sohasida yaratgan ta'limotlari asosida Yevropa olimlari ham qator asarlar yaratganlar.

Abu Nasr Farobi (to'liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad Uzalik ibn Tarxon al-Forobi) (milodiy 873 yil) da Shosh-Toshkentga yaqin Forob (O'tror) degan joyda harbiy xizmatchi oilasida tug'ilgan. Forobda boshlang'ich ta'limni olgach, Shoshda, Buxoroda, Samarqandda ta'lim olganligi haqida ma'lumotlar bor. Farobi Bog'dodda matematika, mantiq, tibbiyot, ilmi nujum, musiqa, tabiiyot,

huquq, tishunoslik bilan shug‘ullangan. Avval O‘trorda, bo‘lib, so‘ngra Bog‘dodga borib unda falsafa, tabiiyot, musiqa fanlari bilan chuqur shug‘ullangan. O‘rta asr falsafiy fikr taraqqiyoti mutaffakkir Abu Nasr Forobiy nomi bilan bog‘liq bo‘lib, uning inson kamoloti haqidagi ta’limoti ta’lim-tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Asqarov A. O‘zbekiston xalqining tarixi. 2-T. “O‘qituvchi”, 1993
2. Ibrohimov O. O‘zbek xalq musiqiy ijodi. Toshkent, “G‘. G‘ulom” 1994.
3. История вокального и хорового исполнительства в Узбекистане Т.:1991.
4. Qodirov R. G. Musiqa psixologiyasi. Toshkent. “Musiqa” O‘z.DK. 2005.
5. Sharipova G.M. Musiqa – pedagogik ta’limtarixi. Ma’ruza matni Elektron versiya. qo‘llanma. T., 2007. Nizomiynomli TDPU 2008.
6. Hasanboeva O. Hasanboev J. Hamidov K. Pedagogika tarixi.T. “G‘afur G‘ulom” nashriyoti 2004.
7. Mustafayev Baxtiyor Ibragimovich. "Некоторые вопросы развития профессиональных навыков учителя музыкальной культуры" Academy, no. 11 (62), 2020, pp. 47-50.
8. Matyakubov O.R. Forobiy. Sharq musiqa asarlari to‘g‘risida. Toshkent.1986.
9. Соломонова Т.Е. История музыки Средней Азии и Казахстана. Музыка1995
10. Xayrullev M. O‘rta Osiyoda ilkuyg‘onishdavrimadaniyati. T.1994.
11. Shirinov T.Sh.. Tariximiz etyudlari. – Toshkent. “Sharq”.- T.2014.
- 12.Турсунов, Х. И. (2023). O‘zbek milliy cholg‘ularining tarixiy ilmiy-nazariy asoslari. *ПЕРЕКРЁСТОК КУЛТУРЫ*, 5(2).
13. Tursunov, H. I. (2022). Elektron o‘quv qo’llanmalar yaratish orqali musiqada mustaqil ta’lim jarayonlarini shakllantirish va rivojlantirish. *Oriental Art and Culture*, 3(2), 156-162.
14. Tursunov, H. (2023). O‘zbekistonda musiqiy cholg‘ularning tarixiy

taraqqiyoti. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(2), 33-39.

15.Tursunov, H. (2023). O'zbekistonda musiqiy cholg 'ularning tarixiy taraqqiyoti. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(2), 33-39.

16.Tursunov, X. (2022). E-Textbooks and manuals are a new professional educational creativity is a factor in creating the environment. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 147-149.